



O'zbekiston Professional futbol ligasi
SUPERLIGA REGLAMENTI
2026

Mazkur Reglament O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan. U O'zbekistonda klublari o'rtasida 2026-yilgi Superliga musobaqasini o'tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Reglament FIFA va OFK nizomlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Reglament 2026-yilgi futbol mavsumi uchun taalluqli bo'lgan yo'nalishlarni qamrab olgan holda 2025-yilning 1-dekabr sanasidan boshlab kuchga kiradi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Mundarija

1-bob	Umumiy qoidalar	5
2-bob	Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar	5
3-bob	Musobaqani boshqarish tartibi	5
4-bob	Musobaqa o'tkaziladigan joy	6
5-bob	Superliga va U21 chempionati formati	8
6-bob	U19 chempionati	9
7-bob	Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi	9
8-bob	Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi	10
9-bob	Klubning Musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	11
10-bob	Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi	13
11-bob	Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi	15
12-bob	Legioner va Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar	16
13-bob	Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining Musobaqadagi ishtirokini tartibga solish	17
14-bob	Klub, Klub rasmiysi hamda futbolchisi majburiyatini tartibga solish	19
15-bob	Uchrashuvni o'tkazish tartibi	21
16-bob	Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar	25
17-bob	Klubning OAV bilan ishlashini tartibga solish	26
18-bob	Klubning Musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar	27
19-bob	Komissarning Musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	28
20-bob	Musobaqada hakamlilik qilishni tartibga solish	29
21-bob	Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish	30
22-bob	Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi	30

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

To'liq va qisqa nomlar — atamalar ta'rifi

Boshqaruv

FIFA	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
IFAB	Xalqaro futbol assotsiatsiyalar kengashi
OFK	Osiyo futbol konfederatsiyasi
O'FA	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya)
PFL	O'zbekiston professional futbol ligasi (Liga)
FHM	O'zbekiston futbol hakamlari markazi (Markaz)
O'FU	O'zbekiston futbolchilari uyushmasi (Uyushma)
HA	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy assotsiatsiyalari
VAR	Video yordamchi hakam
Ijroqo'm	Ijroiya qo'mitasi

Ishtirokchi

Professional klub	OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan klub
FJ	Professional klub qoshida tashkil etilgan farm jamoa
FA	Futbol akademiyasi
FM	Futbol maktabi

Musobaqa

Superliga	O'zbekiston klublari ishtirokidagi oliy toifali musobaqa
U21 chempionati	Superliga klublarining 22 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
U19 chempionati	Superliga va Proliganing 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
Uchrashuv	Musobaqa doirasida o'tkaziladigan rasmiy o'yin

Rasmiy

Komissar	Liga tomonidan Uchrashuvning tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs
Mahalliy koordinator	Liga tomonidan Komissarga ko'maklashish uchun tayinlangan mahalliy mutaxassis
Nazoratchi	Markaz tomonidan tayinlangan va uchrashuv davomida hakamlarni baholab boradigan shaxs
Hakam	Markaz tomonidan IFAB futbol o'yini qoidalari va tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq uchrashuvni nazorat qilish va boshqarish uchun tayinlangan shaxs
Stadion rasmiysi	Uchrashuv o'tadigan stadion uchun javobgar shaxs
Klub rasmiysi	Klub uchun javobgar bo'lgan hamda Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchidan tashqari istalgan shaxs
Uchrashuv rasmiysi	Hakam, Nazoratchi hamda Komissar
Xavfsizlik uchun mas'ul	Ichki ishlar, Milliy gvardiya yoki FVV xodimi, shuningdek, klubning xavfsizlik bo'yicha ofitseri, stadion styuardi
Legioner	O'zbekiston klubiga ishlash uchun taklif etilgan chet ellik sportchi
Xorijiy mutaxassis	O'zbekiston klubiga ishlash uchun taklif etilgan xorij fuqarosi

Boshqalar

Mehnat shartnomasini ro'yxatga olish	Klubga tegishli futbolchi yoki rasmiy shaxsning musobaqada ishtirok etishi uchun u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Liga ro'yxatidan o'tkazish jarayoni
Transfer oynasi	Futbolchining kelgusi yoki joriy musobaqada ishtirok etishi uchun ro'yxatdan o'tishi mumkin bo'lgan davr
Transfer	Futbolchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilishi bilan yakunlangan bir klubdan boshqasiga o'tishi
Transfer shartnomasi	Futbolchining o'tish tartibi, muddati va shartlarini (shu jumladan, xarajatlarni qoplash shartnomasi mavjudligida futbolchining tayyorlanishi uchun sarflangan xarajatlarni to'lash) belgilovchi, klubning boshqa klub yoki sport maktabi bilan tuzadigan kelishuv
Ijara shartnomasi	Ikki klub va futbolchi o'rtasida tuziladigan, o'tishning tartibi, muddati va shartlarini (shu jumladan, to'lovlar) belgilaydigan uch tomonlama shartnoma
Mavsum qaydnomasi	Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchilar orasidan mavsum davomida Musobaqada ishtirok etishi mumkin bo'lgan futbolchilar ro'yxati
Uchrashuv qaydnomasi	Mavsum qaydnomasida mavjud futbolchilar orasidan Uchrashuvda ishtirok etish uchun saralab olingan futbolchilar ro'yxati
Litsenziya	Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi hujjat
Akkreditatsiya	Musobaqa o'tkaziladigan joyda faoliyat olib borish huquqini beruvchi hujjat
Texnik zona	Atamalar lug'atining Rasmiy bo'limida ko'rsatilgan shaxslar begona shaxslar bilan to'qnash kelmaydigan stadion hududi
Texnik o'rindiq	Uchrashuv qaydnomasidan joy olmagan Klub rasmiysi hamda futbolchisi uchun tribunada ajratilgan maxsus joy
XTS	Xalqaro transfer sertifikat
MyLeague	Liga Musobaqa o'tkazishda foydalanadigan onlayn platforma
Mavsum	Kalendar yili doirasidagi Musobaqa vaqtini o'z ichiga olgan davr. Bu davr birinchi uchrashuv kunidan boshlanadi va oxirgi uchrashuv kuni bilan yakunlanadi.

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

1-bob

Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Reglament Superliga, U21 chempionati va U19 chempionatini o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Musobaqa doirasidagi uchrashuvga Hakam va Nazoratchi Markaz bilan imzolangan shartnoma asosida jalb qilinadi.

1.3. Liga tashkilot Ijroqo'mi talabi bilan o'z xarajatlari yuzasidan mavsum so'ngida moliyaviy hisobot taqdim etishi mumkin.

1.4. Mazkur reglament ikki — o'zbek va ingliz tillarida mavjud. Ikki til o'rtasida ehtimoliy tafovut vujudga kelsa, u holda o'zbek tilida yozilgani ustuvor hisoblanadi.

2-bob

Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

2.1. Musobaqa:

- O'zbekiston milliy chempionatini professional darajada tashkil etish va bu orqali mamlakat futboli rivojiga hissa qo'shish;
- Musobaqa ishtirokchilari uchun yaxshi saviyadagi Uchrashuvlar tashkil qilish orqali Klublarda to'p surayotgan futbolchilarning mahorat darajasini oshirishga erishish;
- O'zbekiston terma jamoalariga nomzod futbolchilar sonini ko'paytirish hamda murabbiylar uchun tanlov imkoniyatini kengaytirish;
- futbol muxlislarining hordiq chiqarishi uchun sharoit tashkil etish, ular uchun raqobatbardosh Musobaqa o'tkazish;
- O'zbekiston futbolini targ'ib etish va shu yo'l orqali o'zbekistonlik futbolchilarning chet el klublari nazariga tushishiga erishish kabi maqsadlarni ifoda etadi.

2.2. Musobaqani o'tkazishda:

- O'zbekiston terma jamoalari hamda Professional klublarning xalqaro miqyosdagi rasmiy uchrashuvlarini inobatga olgan holda Uchrashuvlarni FIFA hamda OFK nizomlari/reglamentlari asosida tashkil qilish;
- Professional klublarning xalqaro musobaqalardagi ishtirokiga ko'maklashishni ko'zlab taqvim rejalar ishlab chiqish, bunda FIFA hamda OFK tomonidan o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarni, O'zbekistonda keng nishonlanadigan bayram tadbirlari hamda boshqa fors-major holatlarni inobatga olish;
- OFK tomonidan o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etadigan klublarni aniqlash tizimini yaratish Liga vazifalariga kiradi.

3-bob

Musobaqani boshqarish tartibi

3.1. Musobaqani boshqarish, tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish Liga tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Liga boshqa musobaqalar ham tashkil etadi va ularni quyidagi reglamentlar bilan tartibga soladi:

- “O‘zbekiston kubogi va Superkubogi reglamenti”;
- “Proliga reglamenti”;
- “Birinchi liga reglamenti”.

3.3. Liga Musobaqa o‘tkazishda mazkur Reglamentga qo‘shimcha ravishda quyidagi reglamentlarga ham tayanadi:

- “Futbolchilar maqomi va transferi bo‘yicha reglament”;
- “Tartib-intizom kodeksi”;
- “Litsenziyalash reglamenti”;
- “Stadionlar reglamenti”.

Shuningdek, Liga marketing, OAV bilan ishlash va uchrashuvni translyatsiya qilish kabi boshqa masalalarni hal qilishda qo‘shimcha yo‘riqnomalar va boshqa reglamentosti hujjatlarga tayanadi.

3.4. Liga Klublarning barqarorlik reytingini shakllantirib boradi. Mazkur reyting so‘nggi besh yillik natijalarni o‘zida aks ettiradi hamda Klubning tuzilma sifatida qanchalik samarali ishlayotganini ko‘rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Barqarorlik reytingi Klubning Superliga (1.0), O‘zbekiston kubogi (0.8), Proliga (0.6), U21 chempionati (0.2) hamda U19 chempionati (0.4) kabi musobaqalardagi so‘nggi besh mavsum davomida to‘plagan ochkolarining koeffitsienti yig‘indisi asosida shakllantiriladi. Bunda Klubning musobaqa davomida to‘plagan umumiy ochkolari shu musobaqaning mazkur badda (qavs ichida) ko‘rsatilgan koeffitsientiga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan musobaqalarning pley-off bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan jamoaga 3, mag‘lub jamoaga 0 ochko hisoblanishi inobatga olinadi. O‘tish o‘yinlari va saralash bosqichi natijalari mazkur reytingga kiritilmaydi.

4-bob

Musobaqa o‘tkaziladigan joy

4.1. Musobaqa “Stadionlar reglamenti” talabiga muvofiq Liga tomonidan ruxsat etilgan stadionda o‘tkaziladi.

4.2. Musobaqa qatnashchisi o‘z stadioniga ega bo‘lmasa hamda unda uy Uchrashuvini o‘tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, Klub mazkur stadiondan foydalanish deklaratsiyasini Ligaga taqdim etadi.

4.3. Fors-major holatida Uchrashuvni o‘tkazish uchun stadionni o‘zgartirishga to‘g‘ri kelsa, mezbon klubga Liga ro‘yxatidan o‘tgan stadionda Uchrashuvni o‘tkazish uchun ruxsat beriladi.

4.4. Uchrashuvdan bir kun avval mezbon klub Ligaga stadionning o‘yinga tayyorligi to‘g‘risida dalolatnoma taqdim etishi lozim. Komissar mazkur dalolatnomasiz uchrashuvni o‘tkazmaslikka haqli.

4.5. Superliga uchrashuvidan bir soat oldin Hakam va Komissar maydonni 5 balli tizimda baholaydi:

- 5 — a'lo;
- 4 — yaxshi;
- 3 — qoniqarli;
- 2 — qoniqarsiz.

Agar umumiy bahoning o'rtacha ko'rsatkichi 4 balldan past bo'lsa, Liganing stadionlar bo'yicha ishchi guruhi maydon bilan bog'liq muammolarni o'rganadi. Agar qo'yilgan baho asosli deb topilsa, shu stadionda uy uchrashuvlarini o'tkazayotgan Klub birinchi galda Liga tomonidan rasman ogohlantiriladi. Shunday holat ikkinchi bor takrorlansa, Klubga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) kamida 150 baravari miqdorida jarima intizom chorasini qo'llaniladi. Bunday holat uchinchi bor ro'y bersa, Liga ushbu stadionda Superliga uchrashuvlarini o'tkazmaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

4.6. Superliga uchrashuvi o'tkaziladigan maydon chimining uzunligi eng kamida 1,5 santimetr va eng ko'pida 3,0 santimetr bo'lishi talab etiladi.

4.7. Uchrashuv o'tkaziladigan stadion, Klub yoki shu Klub qarashli bo'lgan HA "Stadionlar reglamenti"da sanab o'tilgan maydon parvarishi uchun talab etiladigan texnikaga ega bo'lishi zarur. Aks holda, Liga stadionni Musobaqa uchun qabul qilmaslikka haqli.

4.8. Musobaqa o'tkaziladigan joyda faoliyat olib boruvchi Stadion rasmiysi uchun Akkreditatsiya shu stadiondan foydalanuvchi Klub tomonidan taqdim etiladi. Uchrashuv davomida Stadion rasmiysi shu Akkreditatsiya hamda Liga tomonidan tasdiqlangan maxsus nimchada bo'lishi talab etiladi.

4.9. Superliga uchrashuvi o'tkaziladigan stadion VAR va teletranslyatsiya uzilishsiz faoliyat olib borishini ta'minlash uchun Uchrashuv startidan 24 soat oldin ishga tushirilib, Hakamning final hushtagidan keyingi 8 soat davomida uzluksiz ishlovchi quyidagi tarmoq liniyalarini taqdim etishi shart:

- VAR uchun har biri 150 mbit/s'dan asosiy va zaxira VPN internet tarmog'i;
- teletranslyatsiya texnikasi uchun 150 mbit/s VPN internet tarmog'i;
- stadionda joylashgan asosiy kamera platformasida 50 mbit/s internet tarmog'i;
- internet translyatsiyasi uchun statik IP bilan 100 mbit/s internet tarmog'i.

4.10. Superliga uchrashuvi o'tkaziladigan stadion VAR texnikasi bilan jihozlangan alohida xonaga ega bo'lishi shart.

4.11. Superliga uchrashuvi o'tkaziladigan stadion maydoni perimetri bo'ylab joylashtirilgan reklama to'siqlarini o'rnatishda Liga belgilab bergan talablarga qat'iy rioya qilinishi lozim. Uchrashuv davomida ularni surish, ko'chirish, to'sib qo'yish yoki qasddan zarar yetkazish taqiqlanadi.

4.12. Superliga klubi yangi mavsumda o'zining uy Uchrashuvini o'tkazadigan stadionni yilning 25-dekabr sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi. Superliganing U21 jamoasi uy uchrashuvini o'tkazadigan stadion esa 15-fevral sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

U19 jamoasi uy uchrashuvini o'tkazadigan stadion 25-fevral sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

5-bob

Superliga va U21 chempionati formati

5.1. Superliga va U21 chempionati jami 30 turdan iborat ikki davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 15 ta uy va 15 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

5.2. Superligada 16-o'rinni egallagan jamoa kelasi mavsumni Superligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va Proligaga tushiriladi.

5.3. Superligada 12, 13, 14, 15-o'rinni egallagan jamoalar mazkur musobaqadagi joyini saqlab qolish uchun pley-off musobaqasida ishtirok etadi. Pley-off uch bosqichdan iborat bo'lib, undagi barcha Uchrashuv faqat bir martadan tashkil etiladi:

- birinchi bosqichda Superligada 12-o'rinni egallagan Klub 15-o'rindan joy olgan Klubga, 13-o'rinni egallagan Klub esa 14-o'rindan joy olgan Klubga qarshi maydonga tushadi va har ikki o'yin g'oliblari Superligadagi joyini saqlab qoladi;
- ikkinchi bosqichda birinchi bosqichdagi ikki o'yinda mag'lub bo'lgan jamoalar o'zaro to'qnash keladi va bellashuv g'olibi Superligadagi joyini saqlab qoladi;
- uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda mag'lub bo'lgan Klub Proliga mavsumini 2-o'rinda yakunlagan Klub bilan bahs olib boradi va mazkur bellashuv g'olibi Superligada ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

O'tish o'yinlarida g'olib jamoani dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, har biri 15 daqiqadan iborat ikki qo'shimcha taym belgilanadi. Shunda ham g'olib aniqlanmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

O'tish o'yinlarida jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan o'zgarishlar "O'zbekiston kubogi va superkubogi reglamenti" bilan tartibga solinadi.

O'tish o'yinlari doirasidagi barcha 4 bellashuv markazlashtirilgan holda o'tkaziladi. Bunda, Superliga jadvalida yuqoriroq o'rinni egallagan jamoa nominal mezbon sifatida belgilab olinadi.

5.4. U21 chempionati uchrashuvi asosiy tarkib ishtirokidagi Uchrashuvdan bir kun oldin o'tkaziladi. Bunda, U21 jamoasi asosiy tarkib o'z Uchrashuvini o'tkazadigan stadiondan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi (sun'iy qoplamali maydonlar bundan mustasno).

5.5. U21 jamoasi uchun maydoni talabga javob bermaydigan Klub shu maydonni Liga ro'yxatidan o'tkaza olmaydi. Bunday holatda U21 jamoasi ishtirokidagi Uchrashuv raqib jamoaning U21 jamoasi maydoniga ko'chiriladi.

Agar har ikki klub U21 jamoasi maydonini Liga ro'yxatidan o'tkaza olmagan bo'lsa, u holda mezbon jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi.

5.6. Musobaqaga qur'a tashlash tizimi haqida Liga Klublarga ma'lumot beradi va shu asosda uni amalga oshiradi.

6-bob

U19 chempionati

6.1. Superliga va Proliga klubining U19 jamoasi (FJ bundan mustasno) U19 chempionatida birgalikda ishtirok etadi.

6.2. U19 chempionati uch bosqichda o'tkaziladi: mintaqaviy, saralash va pley-off bosqichi.

6.3. Mintaqaviy bosqichda qatnashchilar uch mintaqaga — sharq, markaz va g'arb mintaqasiga ajratiladi. Bunda, har bir jamoa o'zi joy olgan mintaqaning qolgan jamoalariga qarshi uy-safar o'yinida ishtirok etadi.

6.4. Mintaqaviy bosqich yakuniga ko'ra, har bir mintaqaning eng yaxshi to'rttadan jamoasi pley-off bosqichiga yo'l oladi.

6.5. U19 chempionatining pley-off bosqichi markazlashtirilgan holda bitta shaharda bo'lib o'tadi va unda shu bobning 4-bandidan kelib chiqib, umumiy 12 ta jamoa Musobaqa g'olibligi uchun kurash olib boradi.

6.6. Musobaqa pley-offi saralash, 1/4 va 1/2 bosqichlaridan, shuningdek, 3-o'rin uchun o'yin hamda finaldan iborat bo'ladi. Bunda, barcha bosqichda juftliklar faqatgina bitta o'yinda maydonga tushadi.

6.7. Mintaqaviy bosqich yakuniga ko'ra, o'z mintaqasida g'olib bo'lgan uch jamoa hamda eng yaxshi ikkinchi o'rin egasi to'g'ridan to'g'ri 1/4 finalga yo'l oladi. Mazkur to'rt jamoa 1/4 finalda o'zaro raqib bo'lmaydi. Qolgan jamoalar saralash bosqichida ishtirok etadi.

6.8. Saralash bosqichida o'z mintaqasida ikkinchi o'rinni egallagan jamoalarning to'rtinchi pog'onani band etgan jamoalarga qarshi o'ynashi ta'minlanadi.

6.9. Saralash va pley-off bosqichida mintaqaviy bosqichdagi natijasi nisbatan yaxshiroq jamoa har qanday holatda ham nominal mezbon hisoblanadi. Saralash va pley-off bosqichiga bitta umumiy qur'a tashlanadi.

6.10. Pley-off bosqichi o'yinlarida kuchlar teng kelsa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

7-bob

Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi

7.1. Musobaqa qatnashchisining o'rnini uning to'plangan ochkolari yig'indisiga ko'ra aniqlanadi.

7.2. Har bir Uchrashuvdagi g'alaba uchun Musobaqa qatnashchisiga 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko yoziladi.

7.3. Ikki va undan ortiq qatnashchi to'plagan ochkolar teng bo'lib qolsa, ularning o'rnini quyidagi ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi:

- o'zaro Uchrashuvlarda olingan ochkolar natijasiga ko'ra;
- o'zaro Uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;

- barcha Uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha Uchrashuvlarda urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha Uchrashuvlarda erishilgan g'alabalar soniga ko'ra.

7.4. Mazkur bobning 3-bandidagi barcha ko'rsatkichlar teng bo'lib qolsa, qatnashchining U19 jamoasi natijasiga e'tibor qaratiladi. Biroq vaziyat chempion yoki Chempionlar ligasida ishtirok etish huquqini beradigan o'rinni aniqlashni taqozo etayotgan bo'lsa, betaraf maydonda "oltin uchrashuv" o'tkaziladi.

"Oltin uchrashuv"da g'olib jamoani dastlabki 90 daqiqa ichida aniqlashning imkoni bo'lmasa, har biri 15 daqiqadan iborat ikki qo'shimcha taym belgilanadi. Shunda ham g'olib aniqlanmasa, navbat penaltilar seriyasiga beriladi.

Bunda, jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan o'zgarishlar "O'zbekiston kubogi va superkubogi reglamenti" bilan tartibga solinadi.

7.5. O'zaro Uchrashuv yoki Uchrashuvlarda texnik mag'lubiyatga uchragan jamoa shu bobning 3 hamda 4-bandlaridan istisno tariqasida quyi o'rinni egallaydi.

7.6. Musobaqaning davom etishi va uning natijasini aks ettiradigan rasmiy ma'lumot Liga matbuot xizmati tomonidan tarqatiladi.

7.7. Superliga g'olibligini qo'lga kiritgan klub OFK litsenziyasiga ega chiqqanlik shartida OFK Elit Chempionlar Ligasining 2026/2027-yilgi mavsumida ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

Agar Superliga g'olibi OFK litsenziyasiga ega chiqqa olmagan bo'lsa, OFK Elit Chempionlar Ligasining 2026/2027-yilgi mavsumida Superliga turnir jadvali bo'yicha mos ravishdagi ketma-ketlikda OFK litsenziyasini olgan keyingi klub ishtirok etadi.

Har qanday sabab tufayli O'zbekistonga xalqaro musobaqadan qo'shimcha kvota taqdim etilsa, Superliganing OFK litsenziyasiga ega keyingi eng yaxshi jamoasiga ushbu yo'llanma taqdim etiladi.

8-bob

Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi

8.1. Superligada 1-o'rinni egallagan Klubga O'zbekiston chempioni uchun atalgan maxsus kubok hamda 50 dona maxsus medal taqdim etiladi.

8.2. Superliga chempioni muddatdan oldin aniqlansa, maxsus kubok hamda medallar klubning keyingi rasmiy uy yoki safar Uchrashuvida topshiriladi.

8.3. Superligada ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan Klublarga 50 donadan maxsus medallar topshiriladi.

8.4. U21 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan maxsus medallar topshiriladi. Shuningdek, g'olib jamoa musobaqa kubogiga ega chiqadi.

8.5. U19 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan maxsus medallar topshiriladi. Shuningdek, g'olib jamoa musobaqa kubogiga ega chiqadi.

8.6. Taqdirlash atributikalari Liga hisobidan tayyorlanadi.

9-bob**Klubning Musobaqadagi faoliyatini tartibga solish**

9.1. Klubning Musobaqaga qo'shilishi yoki undan chiqib ketishi masalasi o'tgan mavsum Musobaqasi natijasiga ko'ra aniqlanadi.

9.2. Klub Musobaqada ishtirok etishi uchun mazkur Reglamentda ko'rsatilgan barcha talablarni bajarishi shart.

9.3. Yakuniga yetgan mavsum natijasiga ko'ra yuqori toifadagi ligada qatnashish huquqini qo'lga kiritgan Klub ushbu huquqdan voz kechsa yoki unda mazkur ligada ishtirok etish uchun reglament, me'yoriy hujjatlar asosida qandaydir to'siq (cheklov) bo'lsa, uning o'rnini mavsum yakuniga ko'ra keyingi o'rinni egallagan boshqa Klub bilan to'ldiriladi. Musobaqani to'g'ridan to'g'ri tark etgan Klub bundan mustasno.

9.4. Superliga klubi OFK tomonidan yangi mavsum uchun taqdim etiladigan litsenziyani qo'lga kiritgan bo'lsa, mazkur Klub ilk yozgi transfer oynasida faqatgina 2004-yil va undan kichik yoshda bo'lgan yangi futbolchini, shuningdek, ilk qishki transfer oynasida faqatgina mahalliy futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

9.5. Faqatgina OFK Litsenziyasini qo'lga kiritgan klubga Assotsiatsiya tomonidan Professional klub maqomi beriladi.

9.6. Klub joriy yilning 22-mayiga qadar "Litsenziyalash reglamenti" talablarini bajarishi shart. Bunda:

- sport, infratuzilma, ishchi-xodimlar hamda huquqiy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 28-fevraliga qadar;
- moliyaviy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 10-apreliga qadar bajarilishi lozim.

9.7. Klub tarkibida qo'shimcha ravishda U16, U14, U12, U10 jamoalari faoliyat yuritishi va mazkur jamoalar Assotsiatsiya va HA tomonidan o'tkaziladigan musobaqada ishtirok etishi lozim.

9.8. Superliga klubining U21 jamoasi O'zbekiston U21 chempionatida, Superliga va Proliga klubining U19 jamoasi (FJ bundan mustasno) esa O'zbekiston U19 chempionatida ishtirok etishi talab etiladi.

9.9. O'zbekiston milliy terma jamoasiga, shuningdek, U20—U23 terma jamoalarining Jahon kubogi, Osiyo kubogi va uning saralash bosqichlari doirasidagi uchrashuvlarida ishtirok etish uchun ikki va undan ko'p futbolchisi jalb qilingan Klub Musobaqa doirasidagi uchrashuv sanasini boshqa kunga ko'chirishni so'rab murojaat qilishga haqli.

9.10. OFK shafeligidagi musobaqa sanasi o'zgargan taqdirda, Liga mazkur musobaqada ishtirok etayotgan klub manfaatidan kelib chiqib, uning ichki Musobaqa doirasidagi Uchrashuvini boshqa sanaga ko'chirishga haqli.

9.11. Uchrashuvga asossiz ravishda kelmagan yoki boshqa sababga ko'ra texnik mag'lubiyat qayd etilgan jamoaga 0:3 hisobidagi texnik mag'lubiyat, raqib jamoaga esa 3:0 hisobidagi texnik g'alaba yoziladi.

9.12. Mazkur bobning 11-bandi bo'yicha ikki marta texnik mag'lubiyat qabul qilib olgan Klub (U21 chempionati va U19 chempionati bundan mustasno) Liga Ijroqo'mi qarori bilan Musobaqa qatnashchilari safidan chiqariladi.

Klubning U21 va U19 jamoasi shu yosh toifasidagi Musobaqaning mavsum davomidagi 10 foiz uchrashuvda ishtirok etmasa, Klub ilk qishki transfer oynasida legioner futbolchini Liga ro'yxatidan o'tkazish imkoniyatidan mahrum etiladi. Agar bu ko'rsatkich 20 foiz va undan ortiqni tashkil etsa, Klub Superligadagi natijasidan qat'i nazar kelasi mavsumni Proligada o'tkazadi.

9.13. Klub Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortsa va o'sha vaqtda hisob 0:3 dan yirikroq ko'rinishda bo'lsa, Uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortgan klubga mavjud hisob bilan texnik mag'lubiyat yoziladi.

Uchrashuv yakuniga ko'ra Klubga texnik mag'lubiyat yozish zaruriyati vujudga kelsa va o'sha jamoa Uchrashuvda 0:3 dan yirikroq hisobda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mavjud hisob bilan qayd etiladi.

9.14. Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan Klub Musobaqa doirasidagi Uchrashuvlarning 50 foizidan kamini o'tkazgan bo'lsa, uning natijalari bekor qilinadi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan Klub Uchrashuvlarning 50 foizi va undan ko'pini o'tkazgan bo'lsa, bunday Klubga qolgan Uchrashuvlar uchun texnik mag'lubiyat (0:3), raqib jamoaga esa texnik g'alaba (3:0) yoziladi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Fors-major holati sabab Musobaqa formatiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa, Uchrashuvlar foizini aniqlash shu o'zgarishga asosan hisoblanadi.

9.15. Klub reglament asosida Musobaqa qatnashchilari safidan chiqarib yuborilsa, ammo faoliyatini davom ettirsa, u holda mazkur Klubga Liga Ijroqo'mi qarori bilan Liga oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarish shartida kelasi mavsumni Proligadan boshlash imkoniyati berilishi mumkin.

9.16. Agar Klub faoliyatini tugatsa, u Liga qatnashchilari safidan chetlashtiriladi. Har qanday boshqa Klub shu klubning nomi, atributlari, belgilari, ramzlari va tarixidan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

9.17. Klub O'zbekiston qonunchiligi asosida o'z nomi yoki tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirsa, yangi Klub avvalgi Klubning huquqiy vorisi hisoblanadi va futbolchi, murabbiy, Klubning boshqa xodimi oldida oylik ish haqi hamda boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblardagi buzilishlar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Shuningdek, u Assotsiatsiya, Liga va O'zbekiston soliq organlari oldidagi qarzdorlikni to'lash uchun javobgar hisoblanadi.

9.18. Superliga klubi musobaqada futbolchining funksional holatini masofadan turib monitoring qilish imkonini beruvchi hamda videotahlillar asosida futbolchining

rasmiy uchrashuvlardagi statistik ko'rsatkichlari haqida ma'lumot beruvchi Liga tan olgan markazlashtirilgan kompaniya xizmatlaridan foydalanishi talab etiladi.

9.19. Klub va shu Klub qoshidagi FJ qayd etgan natijasidan qat'i nazar boshqa-boshqa musobaqada ishtirok etishi shart.

10-bob

Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

10.1. Klub qishki transfer oynasida yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi uchun yillik xarajatlar smetasi loyihasini shu Klubni moliyalashtiruvchi tashkilot hamda Assotsiatsiya bilan kelishishi shart. Bunda, Assotsiatsiya mazkur kelishuvni tasdiqlovchi rasmiy xatni Ligaga taqdim etishi shartida Klub ro'yxatdan o'tkazgan futbolchilarga litsenziya beriladi.

10.2. Klub uy Uchrashuvlarini o'tkazuvchi stadionlar akti mavsumning ilk rasmiy uchrashuvi sanasidan kamida uch hafta avval Ligaga taqdim etishi talab etiladi.

10.3. Klubdan talab qilinadigan hujjatlarni Liga uchun rasmiylashtirish huquqi Klub rahbariyati tomonidan Klub rasmiysiga beriladi. Bunda, Klub rasmiysi MyLeague platformasidan foydalanish ruxsatini olishi uchun uning ma'lumotlari klub rahbari tomonidan Ligaga rasman taqdim etilishi talab etiladi.

10.4. Klub rasmiysi va futbolchisi MyLeague platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tkazilishi lozim. Liga ro'yxatga olishi va litsenziya berishi uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Klub rasmiysi uchun:

- JShShIR;
- Klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- mutaxassislik bo'yicha diplom yoki sertifikat;
- fotosurat.

Klub murabbiyi uchun:

- JShShIR;
- Klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- talab etilgan murabbiylik litsenziyasi;
- fotosurat.

Futbolchi uchun:

- JShShIR;
- Klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- transfer shartnomasi, ijara shartnomasi yoki sobiq klubi bilan mehnat munosabatlari bekor qilinganligini tasdiqlovchi hujjatlardan biri: mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi kelishuv, klub va futbolchi o'rtasidagi munosabatlar yakuni bo'yicha o'zaro e'tiroz mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;
- mashg'ulot kompensatsiyasi shartnomasi yoki mashg'ulot kompensatsiyasidan voz kechish to'g'risidagi hujjat (23 yoshgacha bo'lgan futbolchi uchun);
- fotosurat.

Bunda platformaga yuklangan har qanday hujjat asl nusxasi bilan mos kelishi shart.

10.5. Klub faqatgina MyLeague platformasi orqali ro'yxatdan o'tkazilgan vakili uchun Litsenziya olish huquqiga ega.

10.6. Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi Litsenziya quyidagi shartlarda beriladi:

- mazkur Reglamentning 10.1-bandida tavsiflangan xarajatlar smetasi Ligaga taqdim etilganidan so'ng;
- mazkur Reglamentning 9.18-bandida keltirilgan shartlar amalga oshirilganidan so'ng;
- futbolchining 11.9-band bo'yicha talab etilgan tibbiy tekshiruvdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat;
- Qishki transfer oynasi so'ngida Mavsum qaydnomasiga kiritilgan futbolchining 10.9-band bo'yicha talab qilingan sug'urtalanganlik polisi;
- 14.19-bandda qayd etilgan Liga fotosessiyasida ishtirok etgan taqdirda;
- XTS (bundan avval boshqa assotsiatsiya ro'yxatidan o'tgan futbolchi uchun).

Bunda, Litsenziya Klub rasmiysiga uning imzosi bilan tasdiqlangan shaxsiy mas'uliyati ostida taqdim etiladi.

10.7. Har qanday sabab bilan Liga tomonidan taqdim etilgan Litsenziyani yangidan chop etish zarurati vujudga kelsa, u holda Litsenziya jarima to'lovi evaziga Liga tomonidan qayta chop etiladi.

10.8. Klub o'z rahbariyati tarkibini quyidagi ko'rinishda Liga ro'yxatidan o'tkazishi lozim:

- direktor/menejer;
- sport direktori;
- texnik direktor;
- litsenziyalash menejeri/outsorsing;
- xavfsizlik bo'yicha ofitser;
- matbuot kotibi;
- bosh murabbiy;
- yordamchi murabbiy;
- jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy;
- darvozabonlar murabbiyi;
- tahlilchi;
- ma'mur;
- shifokor;
- massajchi/fizioterapevt;
- yuriskonsult/outsorsing;
- FA/FM direktori;
- U21 va U19 jamoalari murabbiylari.

Shu bandda ko'rsatilgan Klub rasmiylari hamda futbolchilar Liga ro'yxatidan o'tkazilishi uchun birinchi navbatda Klub direktor/menejeri MyLeague platformasida ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim.

10.9. Mazkur Reglamentning 10.6-bandida keltirilgan sug'urta polisida aks etgan tovon puli bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) kamida 150 baravari miqdoridan kam bo'lmasligi shart.

11-bob

Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi

11.1. Futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish 2025-yilning 5-dekabr sanasidan boshlanadi. Superliga klubi uchun futbolchini ro'yxatdan o'tkazish 2026-yilning 20-fevral sanasida yakuniga yetadi.

Yozgi transfer oynasi 2026-yilning 22-iyunidan shu yilning 24-iyuliga qadar davom etadi.

11.2. Klub futbolchi yoki murabbiy bilan yilning istalgan davrida mehnat shartnomasi tuzish hamda unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Mazkur mehnat shartnomasi yoki unga kiritilgan o'zgarish imzolangan kundan boshlab 20 kun ichida Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

11.3. Klub o'z vakili bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilsa, Liga uch kun ichida bu haqda yozma ravishda ogohlantirilishi shart.

11.4. Superliga klubi qishki transfer oynasida 10 nafar va yozgi transfer oynasida 5 nafar futbolchi, shuningdek, har ikki transfer oynasida bir nafar darvozabondan ortiq bo'lmagan yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

Shu mavsumda Superliga qatnashchilari safiga qo'shilgan Klubga qishki transfer oynasida 15 nafargacha yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat etiladi.

11.5. Klub tomonidan ijaraga olinayotgan futbolchi mazkur bobning 4-bandiga ko'ra yangi futbolchi sifatida qayd etiladi (o'tgan mavsum yakunida shu Klub safida ijara asosida to'p surgan yoki boshqa klubga ijaraga berilgan futbolchi bundan mustasno).

11.6. Klub 2004-yil va undan kichik yoshdagi yangi mahalliy futbolchi bilan (darvozabon uchun 2003-yil) shartnoma imzolasa, mazkur futbolchi shu bobning 4-bandida qayd etilgan limitdan tashqari ro'yxatdan o'tkaziladi.

11.7. Klub o'ziga qarashli bo'lgan FA/FM yoki shu klubga birlashtirilgan FA/FM tarbiyalanuvchisini (2007 va undan keyin tug'ilgan) Superliga uchun faqatgina transfer oynasi vaqtida mavsum uchun qaydnomaga kiritishga haqli.

11.8. Klub o'ziga qarashli/birlashtirilgan FA/FM tarbiyalanuvchisi yoki boshqa klubga qarashli FA/FM tarbiyalanuvchisini U19 chempionati uchun 15-sentabrga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishga haqli.

11.9. Mazkur Reglamentning 10.6-bandida ko'rsatilgan tibbiy ko'rik xulosasi Assotsiatsiya tibbiy qo'mitasi tomonidan belgilab berilgan ro'yxat bo'yicha olib borilishi shart.

Bunda, Klubning Mavsum qaydnomasidan hamda yozgi ro'yxatdan o'tkazish davrida Mavsum qaydnomasiga yangi qo'shilgan futbolchi Milliy futbol markazining Sport tibbiyoti va reabilitatsiya bo'limida tibbiy ko'rikdan o'tadi.

11.10. Mavsum qaydnomasidan o'rin olgan futbolchi bilan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining to'rt barobaridan kam bo'lmagan summada mehnat shartnomasi imzolanishi talab etiladi.

12-bob

Legioner va Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar

12.1. Faqatgina Professional klub Legioner bilan shartnoma imzolash huquqiga ega.

12.2. Ro'yxatdan o'tkazilayotgan Legioner Liga tomonidan to'rt toifa: oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi toifaga ajratib olinadi.

Oliy toifa:

- Yevropa yoki Jahon kubogining final bosqichi doirasida maydonga tushgan futbolchi;
- UEFA koeffitsientlar jadvalida dastlabki yetti o'rinda borayotgan mamlakatlar oliy divizionining yakuniga yetgan so'nggi mavsumida yoki davom etayotgan mavsumida kamida 10 ta o'yinda maydonga tushgan futbolchi.

Birinchi toifa:

- 2006-yil va undan keyin tug'ilgan, so'nggi ikki mavsum davomida o'z mamlakati terma jamoasining rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinlarida eng kamida ikki marta maydonga tushgan futbolchi.

Ikkinchi toifa:

- FIFA reytingida dastlabki 20 pog'onada borayotgan terma jamoa safida hech bo'lmaganda bitta rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinda maydonga tushgan 1995-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi;
- o'z mamlakati milliy terma jamoasining rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinlarida so'nggi ikki yil davomida kamida 2 marta maydonga tushgan futbolchi.

Uchinchi toifa:

- har qanday Legioner.

12.3. Legioner yoki Xorijiy mutaxassis xizmatidan foydalanuvchi Klub ularni yangi mavsum hisobidan Liga ro'yxatidan o'tkazish uchun bir martalik pullik to'lovni amalga oshiradi (birinchi toifali Legioner bundan mustasno). Agar Legioner yozgi transfer oynasida boshqa Klub safiga o'tsa, uning yangi Klubi Legioner futbolchi uchun to'lov amalga oshirmaydi. Bunda:

- oliy toifaga kiruvchi Legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorning teng yarmini tashkil qiladi;
- ikkinchi toifaga kiruvchi Legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorda amalga oshiriladi;
- uchinchi toifaga kiruvchi Legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorning ikki barobari miqdorida amalga oshiriladi;

Klubning Legioner bilan amaldagi shartnomasi mavjud bo'lsa yoki klub o'z safida o'tgan mavsum ham harakat qilgan Legioner bilan shartnomani uzaytirs, mazkur holatda shu bobning 6-bandi ikkinchi xatboshisi inobatga olinadi.

12.4. Klub 6 nafargacha Legioner futbolchini Mavsum qaydnomasiga kiritish huquqiga ega.

12.5. Klub Legioner yoki Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazishda quyidagi imtiyozlardan foydalanishi mumkin:

- agar Legioner yoki Xorijiy mutaxassis uzluksiz ketma-ket to'rt mavsumni O'zbekiston klublarida o'tkazgan bo'lsa va 2026-yilgi mavsum tartib bo'yicha uning ketma-ket beshinchi mavsumi bo'lsa, ular uchun to'lov amalga oshirilmaydi;
- agar Legioner bir klub safida ketma-ket ikkinchi yoki undan ortiq mavsum davomida ro'yxatdan o'tayotgan bo'lsa, mazkur futbolchi uchun belgilangan to'lov 50 foizga qisqartiriladi;
- agar Legioner birinchi toifaga mansub bo'lsa, Klub uni shu bobning 4-bandida qayd etilgan cheklov miqdoriga qo'shimcha ravishda ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

12.6. Liga quyidagi holatlarda Legionerni ro'yxatdan o'tkazmaslikka haqli:

- Legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa;
- Legioner bilan bog'liq qarzdorlik sabab Assotsiatsiya yoki FIFA klubga nisbatan cheklov qo'ygan bo'lsa.

12.7. Legioner futbolchi va Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov miqdori Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan eng so'nggi qaror asosida belgilanadi.

12.8. Klub har qanday Xorijiy mutaxassis bilan shartnoma tuzish oldidan uning litsenziyasi OFK talabiga to'g'ri kelishi masalasini Assotsiatsiya texnik bo'limi bilan kelishishi talab etiladi.

13-bob

Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining Musobaqadagi ishtirokini tartibga solish

13.1. Liga Klubning futbolchi bilan tuzgan mehnat shartnomasini yilning istalgan davrida ro'yxatdan o'tkazadi. Biroq futbolchini Mavsum qaydnomasiga kiritishga faqatgina transfer oynasi vaqtida ruxsat etiladi (U19 chempionati bundan mustasno).

13.2. Mehnat shartnomasi Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchining boshqa har qanday klub (ljara shartnomasi mavjud bo'lgan holat bundan mustasno) yoki Ligadan boshqa tashkilot o'tkazadigan musobaqa doirasida maydonga tushishi taqiqlanadi. Bunday holat aniqlansa, uning Klubiga nisbatan jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

13.3. Superliga klubi 35–45 nafar futbolchini Mavsum qaydnomasiga kiritishi talab etiladi. Bunda, Klub 22 nafargacha 2003-yil va undan oldin tavallud topgan futbolchini qaydnomaga kirita oladi. Mazkur limitdan tashqari yana 2 nafar darvozabonni 23 va 24-o'yinchi (2002 va undan oldin tug'ilgan) sifatida ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat etiladi.

Klub 2007-yil va undan kichik yoshdagi futbolchini yuqoridagi cheklovdan tashqari Mavsum qaydnomasiga kiritishga haqli. Bunda, Superliga klubining umumiy futbolchilari soni 60 nafardan oshmasligi kerak.

13.4. U21 chempionatida 2004-yil va undan kichik yoshdagi futbolchi hamda 2003-yil va undan kichik yoshdagi darvozabon to'p surishiga ruxsat etiladi.

13.5. Klub U21 chempionati Uchrashuvi qaydnomasiga 2003-yil va undan katta faqatgina 4 nafar futbolchini kiritish uchun ruxsat etiladi (2003-yilda tug'ilgan darvozabon bundan mustasno). Bunda, bir vaqtning o'zida mazkur 4 futbolchidan faqatgina 2 nafariga maydonda to'p surish uchun ruxsat etiladi.

Mazkur bandga rioya qilinmagan holat Klubga nisbatan shu Reglamentning 9.11-bandi qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

13.6. Klub U19 chempionatida ishtirok etuvchi jamoasining Mavsum qaydnomasiga kamida 20 nafar 2007-yil (darvozabon uchun 2006) va undan keyin tug'ilgan futbolchini kiritishi talab etiladi.

13.7. U19 chempionati uchun kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tishga faqatgina Klub qoshida tashkil etilgan yoki Assotsiatsiya tasarrufidagi FA/FM tarbiyalanuvchisiga ruxsat etiladi. Boshqa har qanday holatda futbolchi bilan Mehnat shartnomasi tuzilgan bo'lishi talab etiladi.

13.9. Professional klubga Birinchi liga musobaqasi uchun FJ ro'yxatdan o'tkazishi mumkin. Liga qarzdorligi mavjud Klubning FJni ro'yxatdan o'tkazmaslikka haqli.

13.10. Klub tizimidagi 2007-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchiga U19 chempionatida ishtirok etish uchun ruxsat etiladi.

13.12. FJ uchun ro'yxatdan o'tgan futbolchi Superliga va U21 chempionati doirasidagi Uchrashuv qaydnomasiga kiritilishi taqiqlanadi.

13.13. Klub boshqa bir Klubga bir mavsumning o'zida 2 nafardan ortiq bo'lmagan futbolchini ijaraga berishga haqli.

13.14. Klub bir mavsum davomida umumiy hisobda 6 nafargacha futbolchini o'zi ishtirok etayotgan liganing boshqa Klublariga ijaraga berishga haqli (2004-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi mazkur limitdan mustasno).

13.15. Klubga Ijara shartnomasi asosida kelib qo'shilgan futbolchi o'zining asl jamoasiga qarshi o'yinda maydonga tushishga haqli.

13.16. U19 chempionatida kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tgan futbolchi Assotsiatsiya va HA tomonidan o'tkaziladigan musobaqada to'p surishga haqli. Biroq uning boshqa FA/FM/klub safida bir vaqtning o'zida qayta ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

13.17. Klubga barcha Legionerlarni Uchrashuv qaydnomasiga kiritishga haqli. Biroq har qanday holatda ham Superliga Uchrashuvi davomida bir vaqtning o'zida faqatgina 5 nafar Legioner maydonda harakat qilishiga ruxsat etiladi.

Mazkur bandga rioya qilinmagan holat Klubga nisbatan shu Reglamentning 9.11-bandi qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

13.18. Musobaqada 15 yoshga to'lmagan futbolchining ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

14-bob

Klub, Klub rasmiysi hamda futbolchisi majburiyatini tartibga solish

14.1. Klub Reglamentda belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

14.2. Klub vakili yuqori darajadagi intizom, tartiblilik, uyushqoqlik, o'zaro va tomoshabinlarga nisbatan hurmatni namoyish etib, mazkur Reglamentning barcha talablariga rioya qilishi talab etiladi.

14.3. Klub o'z vakilining xulq-atvori uchun bevosita mas'ul. Klub a'zolarining Komissar, Nazoratchi va Hakam faoliyatiga aralashishi taqiqlanadi.

14.4. Klub o'z tomoshabinlari, shuningdek, Klub nomidan biror-bir Uchrashuvda muayyan vazifani bajarayotgan har qanday shaxs xulqi uchun javobgar hisoblanadi.

14.5. Klub hamda stadion Uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq zarur tashkiliy masalalarni hal etish uchun mas'ul hisoblanadi. Ular Uchrashuv xavfsizligi hamda tez tibbiy yordam uchun mas'ul organlar bilan hamkorlikda Uchrashuvdan oldin, Uchrashuv davomida va Uchrashuvdan keyin stadionda, unga tutash hududda intizom hamda jamoatchilik tartibini saqlash uchun barcha zarur chorani ko'rishi talab etiladi.

14.6. Klub mazkur Reglamentning 13.5, 15.11 hamda 15.12-bandlari bo'yicha bevosita javobgar hisoblanadi.

14.7. Klub xalqaro turnir yoki xorijdagi o'quv-mashg'ulot yig'ini muddati, joyi aniq bo'lishi bilan Assotsiatsiya hamda Ligani bundan xabardor qilishi talab etiladi.

14.8. Klubda Uchrashuv sanasi, joyi yoki vaqtini o'zgartirish zaruriyati vujudga kelsa, o'yin startiga 20 kundan kam bo'lmagan muddat bor vaqtda Ligaga murojaat bilan chiqishi talab etiladi. Har qanday holatda ham yakuniy qaror Liga tomonidan e'lon qilinadi.

14.9. Uchrashuv mezboni bo'lgan Klub Uchrashuv rasmiysining xavfsizligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

14.10. Uchrashuv rasmiysi xonasiga faqatgina Komissar ruxsat etgan shaxsning kirishi uchun ruxsat etiladi.

14.11. Mezbon klub Uchrashuvga Ligadan tegishli mavsum uchun olingan kamida 10 ta to'p taqdim etishi hamda mazkur to'plardan Uchrashuv yakuniga qadar to'liq foydalanilishini tashkil etishi talab etiladi.

Bunda, to'plar stadionda maxsus belgilangan joylarga o'rnatilgan maxsus moslamalarda turishi kerak. Ballkid maydon tashqarisiga chiqib ketgan to'pni faqatgina shu moslamalarga tezlik bilan olib kelib qo'yish uchungina javobgardir.

Komissar xulosasiga ko'ra o'yin vaqtini cho'zish maqsadida to'plar tegishli joyda turmayotgani aniqlansa, har bir shunday holat uchun Komissar Hakamdan alohida bir daqiqadan qo'shib berishni talab qilishga haqli.

14.12. Mezbbon klub to'p uzatib turish uchun 10 nafar yoshi 12 dan kichik hamda 16 dan katta bo'lmagan, libosi maydondagi futbolchi va hakam libosidan farqlanadigan ko'ngillilar guruhini (keyingi o'rinda – Ballkid) taqdim etishi talab etiladi.

14.13. Komissar mezbbon klubdan Uchrashuvni o'tkazishda ko'maklashuvchi qo'shimcha ko'ngillilar guruhini mazkur bobning 12-bandiga qo'shimcha ravishda talab qilishga haqli.

14.14. Mezbbon klub zarur holatlarda Ballkid Liga tomonidan taqdim etilgan ustki libosni kiyishini nazoratga olish hamda Ballkid uchrashuvni o'tirib tomosha qilishi uchun ko'chma o'rindiqlik taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

14.15. Uchrashuv davomida ovoz kuchaytirgich orqali e'lon qilinadigan har qanday xabar yoki signal Komissar bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi.

14.16. Uchrashuv davomida Uchrashuv rasmiysidan boshqa har qanday shaxsning ovoz kuchaytirgichdan foydalanishi, shuningdek, maydon perimetri bo'ylab zaxira o'rindiqlari joylashgan tomondagi barcha sektorlarda puflama asboblardan foydalanishi taqiqlanadi.

14.17. Komissar zaruriyatdan kelib chiqib, Uchrashuvni o'tkazish uchun mazkur Reglamentda qayd etilmagan kerakli vositalar bilan ta'minlash masalasini mezbbon klubdan talab qilishga haqli.

14.18. Mezbbon klub va vaziyatdan kelib chiqib mehmon klub Uchrashuv tugashi bilan 120 daqiqa ichida Nazoratchiga hamda 24 soat ichida Ligaga shu Uchrashuvning raqamli shakldagi videoyozuvini talab qilingan formatda taqdim etishi shart. Bunda, tasvir shartli ravishda taymer yoqilgan holda jamoalarning maydonga chiqish paytidan to kiyinish xonasiga qaytishigacha butun Uchrashuv davomida uzluksiz suratga tushirilishi zarur.

14.19. Mavsum qaydnomasidan joy olgan futbolchi 1-mart sanasigacha, yozgi transfer oynasida Mavsum qaydnomasiga qo'shilgan yangi futbolchi esa 1-avgust sanasigacha Liga tomonidan o'tkaziladigan fotosessiyada Klubning shu mavsumda foydalanadigan barcha liboslarida ishtirok etishi shart. Faqatgina uzrli holatlarda Mavsum qaydnomasida mavjud futbolchilarning 10 foiziga ko'rsatilgan muddatlardan keyingi 30 kun ichida fotosessiyada alohida ishtirok etishga ruxsat etiladi.

14.20. Favqulodda holatlar hamda epidemiologik vaziyatlarda Musobaqaning tashkiliy masalalari qo'shimcha reglament yoki Liganing rasmiy talabi bilan tartibga solinadi.

15-bob

Uchrashuvni o'tkazish tartibi

15.1. Klubning ikki Uchrashuvi o'rtasidagi vaqt oralig'i 48 soatdan kam bo'lmasligi ta'minlanadi.

15.2. Uchrashuv davomiyligi 45 daqiqadan ikki taym bo'ladi. Taymlar orasidagi tanaffus 15 daqiqani tashkil etadi.

15.3. Ob-havo haroratidan kelib chiqib, Uchrashuv Hakami klublardan birining taklifiga ko'ra, bo'limlar davomida bir marta suv ichish uchun 1 daqiqadan ko'p bo'lmagan tanaffus e'lon qilishi mumkin.

15.4. Musobaqa oldi jarayoni, mazkur Reglamentning 4.9-bandini ham inobatga olgan holda, Uchrashuv startigacha quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 180 daqiqa — Komissarning stadiongacha kelishi;
- 90 daqiqa — Nazoratchi va Hakamning kelishi;
- 90 daqiqa — Klubning kelishi;
- 75 daqiqa — Uchrashuv qaydnomasini tuzish uchun futbolchi Litsenziyasini Komissarga taqdim etish;
- 60 daqiqa — tez tibbiy yordam mashinasi Uchrashuv o'tkaziladigan joyda bo'lishi;
- 50–20 daqiqa — chigilyozdi mashg'uloti;
- 15 daqiqa — futbolchi libosi va undagi belgilar tekshiruvi, raqamning Litsenziyaga muvofiqligi;
- 10–5 daqiqa — jamoaning tribunaosti yo'lakchasida saflanishi.

Klub Komissar taqdim etgan Countdown tartibiga qat'iy rioya qilishi lozim.

15.5. Musobaqa davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni:

- Superliga — uch urinishda 5 ta. Bosh chayqalishi bilan bog'liq favqulodda o'zgarish masalasi maxsus yo'riqnoma bilan tartibga solinadi.
- U19/U21 chempionati — umumiy 7 ta, bunda o'yin vaqtida uch urinishda 5 ta hamda tanaffus vaqtida qo'shimcha 2 ta.

15.6. Klub Uchrashuv davomida Liga tomonidan taqdim etilgan professional futbol to'plaridan foydalanishi shart. Klub mashg'ulotlari uchun to'plarni mustaqil ravishda sotib olishi talab etiladi.

15.7. Klub Uchrashuv startidan 75 daqiqa avval Komissarga klub asosiy tarkibi futbolchilarining maydondagi joylashuvi aniq ko'rsatilgan sxemani taqdim etishi talab etiladi.

15.8. Klub Uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 9 nafar zaxira futbolchisini kiritishi uchun ruxsat etiladi.

15.9. Uchrashuv qaydnomasidan Liga Litsenziyasiga ega bo'lgan 9 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi uchun ruxsat etiladi.

15.10. Mazkur bobning 9-bandida ko'rsatilgan Klub rasmiylari orasida Liga ro'yxatidan o'tgan klub shifokorining bo'lishi shart.

15.11. Klub Uchrashuv qaydnomasiga diskvalifikatsiya qilingan yoki Mazkur Reglament bilan tartibga solingan cheklovdan tashqari futbolchini kiritgan holatda g'alaba

qozonsa yoki durang o'ynasa, unga nisbatan mazkur Reglamentning 9.11-bandi bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi. Bunda, ushbu Uchrashuvda urilgan gollar hisobdan chiqariladi, ammo olingan ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchida qoladi.

15.12. Diskvalifikatsiya qilingan futbolchini qaydnomaga kiritgan holatni sodir etgan Klub o'sha Uchrashuvda 0:3 dan yirik ko'rinishda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mazkur Reglamentning 9.13-bandi bo'yicha mavjud hisob bilan yoziladi.

15.13. Klub stadionga kechikib yetib kelgan futbolchini Uchrashuv qaydnomasiga o'yin startiga 20 daqiqa qolgunga qadar kiritishga haqli. Buning uchun Klub rasmiysi Komissarga murojaat qilishi talab etiladi.

Klub Uchrashuv o'tkaziladigan joyda bo'lmagan futbolchini Uchrashuv qaydnomasiga kiritganlik uchun javobgardir.

15.14. Komissar hamda bosh murabbiy tomonidan imzolangan Uchrashuv qaydnomasiga biror futbolchining kutilmagan jarohati sabab Uchrashuv startigacha o'zgartirish kiritish zaruriyati vujudga kelsa, Uchrashuv startiga 20 daqiqa qolgunga qadar Uchrashuv qaydnomasiga o'zgartirish kiritiladi. Uchrashuv startiga 20 daqiqadan kam vaqt qolgan taqdirda faqatgina Komissar fors-major deb topgan holatlardagina Uchrashuv qaydnomasiga o'zgartirish kiritilishiga ruxsat etiladi.

Bunda, jarohatlangan futbolchiga Uchrashuvni zaxira o'rindig'ida kuzatish hamda faqatgina keyingi Uchrashuvdan boshlab maydonga tushish uchun ruxsat etiladi.

15.15. Klub shu bobning 14-bandidan kelib chiqib Uchrashuv startigacha biror futbolchini almashtirishga majbur bo'lsa, klub Uchrashuv davomida shu bobning 5-bandida ko'rsatilgan limitdan to'liq foydalanish huquqini saqlab qoladi.

15.16. Mehmon klub Uchrashuv startigacha 30 daqiqadan kam vaqt qolganda shu bobning 4-bandi bo'yicha stadionga kechikib yetib kelsa, Klub rasmiysi Komissardan futbolchilar kiyim almashtirishi hamda chigilyozdi mashg'ulotlarini o'tkazishi uchun umumiy hisobda yana 15 daqiqa vaqt so'rashga haqli.

15.17. Uchrashuv belgilangan vaqtdan 16 daqiqaga kechikishni boshlasa, aybdor klubga nisbatan mazkur Reglamentning 9.11-bandi qo'llaniladi.

15.18. Tez tibbiy yordam mashinalari yoki xavfsizlik uchun javobgar organlarning kechikishi oqibatida Uchrashuv o'z vaqtida start olmasa, Komissar 30 daqiqadan keyin mezbon klubga nisbatan Reglamentning 9.11-bandini qo'llashga haqli bo'ladi.

Uchrashuvni o'tkazish uchun ikkita tez tibbiy yordam mashinasini jalb etish tavsiya etiladi. Klub bitta tez tibbiy yordam mashinasi jalb qilgan bo'lib, ushbu mashina har qanday sabab bilan Uchrashuv o'tkazilayotgan stadionni tark etsa, stadionga boshqa tez tibbiy yordam mashinasi kelguniga qadar o'yin to'xtatiladi. Agar 30 daqiqada tez tibbiy yordam mashinasi yetib kelmasa, Komissar mezbon klubga nisbatan Reglamentning 9.11-bandini qo'llashga haqli bo'ladi.

15.19. Klub rasmiysi uchun Litsenziya Musobaqada ishtirok etish va tegishli zonaga kirish huquqini beruvchi yagona hujjat hisoblanadi. Litsenziya egasi Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan taqdirida Texnik zonaga qo'yiladi.

15.20. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan shaxs hamda zaxira futbolchisi Texnik zonada maxsus ajratilgan joyda bo'lishi shart. Mezbon jamoa zaxira hakamining chap tomonida, mehmon jamoa o'ng tomonida maydonga qarab joylashadi.

15.21. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan rasmiy shaxs ko'ksida Texnik zonaga kirishga ruxsat beruvchi Litsenziya bo'lishi talab etiladi (bosh murabbiy bundan mustasno).

15.22. Uchrashuv qaydnomasiga kirgan zaxira futbolchisiga o'z zaxira o'rindig'iga eng yaqin maydon burchagidagi maxsus belgilangan hududda to'psiz (darvozabon bundan mustasno) chigilyozdi mashg'ulotini bajarish uchun ruxsat etiladi.

15.23. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan zaxira futbolchilaridan faqat 6 nafariga o'z zaxira o'rindig'iga yaqin burchak bayrog'i zonasida chigilyozdi mashqlarini bajarishga ruxsat beriladi.

15.24. Shu bobning 22-bandidagi chigilyozdi mashg'ulotida Klub rasmiylari orasidan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy hamda darvozabonlar murabbiyining ishtirok etishi uchun ruxsat etiladi.

15.25. Shu bobning 22, 23 hamda 24-bandlarida qayd etilgan shaxslar libosi maydondagi futbolchilar va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

15.26. Texnik zonada tamaki va boshqa turdagi mahsulotlar chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish taqiqlanadi.

15.27. Uchrashuv qaydnomasidan joy olgan Klub rasmiysiga mobil aloqa vositasidan foydalanish taqiqlanadi (mazkur Reglamentning 9.18-bandida belgilangan maxsus ruxsat etilgan texnik vositalar bundan mustasno). Bunda, hech qanday texnik vosita Uchrashuv rasmiylariga e'tiroz bildirish uchun asos bo'lmasligi shart.

15.28. Klub bosh murabbiyi Texnik zonada dress-kodga amal qilish talab etiladi.

15.29. Uchrashuv vaqtida Klub rasmiylari orasidan bir vaqtning o'zida faqatgina bir kishiga Texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish uchun ruxsat etiladi. Bunda, bosh murabbiy chet el fuqarosi bo'lib, futbolchilar bilan muloqot uchun tarjimon yordami zarur bo'lsa, bosh murabbiy ko'rsatma berishda tarjimondan foydalanishga haqli.

15.30. Uchrashuv qaydnomasidan o'rin olmagan Klub rasmiysi yoki futbolchiga faqatgina jamoa uchun ajratilgan Texnik o'rindiqda o'tirish uchun ruxsat etiladi. Bunda, ularga Texnik zonaga kirishga ruxsat berilmaydi (kiyim almashtirish xonasi bundan mustasno).

Shuningdek, Hakam tomonidan chetlashtirilgan bosh murabbiy matbuot anjumanida ishtirok etmaydi. Hakam tomonidan chetlashtirilgan futbolchining mikst-zona orqali stadionni tark etishi majburiy emas.

15.31. Mezbon klub Uchrashuv startidan 15 daqiqa oldin hamda tanaffus vaqtida 3-5 daqiqa davomida maydon chimini sug'orishi talab etiladi. Ob-havo sharoitidan kelib chiqib, mazkur masala Komissar tomonidan tartibga solinadi.

15.32. Uchrashuv o'tadigan maydon chimi o'yin startiga 6 soat vaqt qolguniga qadar baraban yoki silindr turidagi maysa o'rgich bilan to'liq o'rib bo'linishi shart.

15.33. Maydon chiziqlari Uchrashuv startiga 6 soat vaqt qolguniga qadar vodoemulsiya yordamida maxsus markerda bo'yalishi lozim.

15.34. Mezbon klub Uchrashuvning 75-daqiqasida stadiongacha tashrif buyurgan muxlislar sonini rasman e'lon qilishi va mazkur raqamlarni stadion tablosida aks ettirishi talab etiladi.

15.35. Musobaqa Liga tomonidan belgilangan muddat va vaqtda o'tkaziladi. Vaqti (kun va soat) quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- oldindan taxmin qilishning imkoni bo'lmagan fors-major vaziyat va hodisalarning yuzaga kelishi natijasida Uchrashuvni o'tkazish, boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmaganida. Bunday hodisalar qatoriga avariya, yong'in, suv toshqin, zilzila, epidemiologik va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, Musobaqa tashkilotchilari va futbolchilarga bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa tafsilotlar kiradi. Bunday holatlarda uchrashuvning qachon va qay tartibda davom ettirilishi masalasi Liga tomonidan belgilanadi;
- Musobaqa jadvaliga Liga tomonidan o'zgartirish kiritilganida.

15.36. Elektr yoritish tizimidagi muammo 45 daqiqa ichida bartaraf etilmagani oqibatida Uchrashuvni boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmasa, maydon egasi bo'lgan Klubga nisbatan mazkur reglamentning 9.11 yoki 9.13-bandlardan biri bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi.

15.37. Hakam tomonidan quyidagi sabablar bilan sariq kartochka olgan futbolchi birinchi galda Liga tomonidan ogohlantiriladi, keyingi shu kabi holatlarning barchasida futbolchiga nisbatan jarima intizom chorasi qo'llaniladi:

- simulyatsiya uchun;
- Uchrashuv vaqtini cho'zganligi uchun;
- Hakam qaroriga norozilik bildirgani uchun.

Xuddi shunday holatlar Klub rasmiysi bilan kuzatilsa, mazkur holatda ogohlantirishlarsiz jarima intizom chorasi qo'llaniladi.

16-bob

Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar

16.1. Musobaqa ishtirokchilarining futbolkasiga klub ramzi tushiriladi. Ramz o'lchami 100 sm² gacha (10 sm x 10 sm) bo'lib, u futbolkaning chap ko'krak qismida joylashadi.

16.2. Klub har beshinchi chempionlik maqomini qo'lga kiritgach, Klub ramzining tepa qismida bir dona yulduzchani aks ettirish huquqiga ega.

16.3. Futbolkaning ikkala yenglari, futbolka orqa qismidagi raqamlarning ost qismi Liga ramzi va homiylari uchun ajratilishi shart.

16.4. Futbolka old tomonining markaz qismida O'zbekiston davlat bayrog'i aks etishi talab etiladi. Bayroq o'lchami 24 sm^2 ($4 \text{ sm} \times 6 \text{ sm}$) bo'lishi lozim. Bunda, bayroq alohida ajralib turishi uchun uning atrofi oq chiziq bilan qoplanadi. Chiziq qalinligi 3 mm bo'lishi tavsiya etiladi.

16.5. Futbolka orqa tomonining tepa kurak qismida futbolka egasining ismi yoki familiyasi (taxallus) o'zbek lotin alifbosida yozilgan bo'lishi talab etiladi. Liga klubdan futbolchining ism yoki familiyasini o'zbek tilida to'g'ri yozishni talab etishga haqli. Bunda ism yoki familiya balandligi 5–8 sm oralig'ida hamda Liga belgilab bergan shriftida bo'lishi shart.

16.6. Futbolchining litsenziyasida ko'rsatilgan futbolka raqami uning futbolkasining orqa tomonida — bel hamda kurak qismi oralig'ida balandligi 25–35 sm hamda Liga belgilab bergan shrift bilan aks etishi talab etiladi.

16.7. Futbolchi shortisining o'ng oyoq pastki qismida futbolchining futbolkasidagi raqam balandligi 10–15 sm oralig'ida aks ettirilishi talab etiladi.

16.8. Shu bobning 5, 6 hamda 7-bandlarida ko'rsatilgan yozuvlar libos rangidan aniq farqlanishi hamda hamma uchun birdek ko'rimli bo'lishi shart. Bunda, aralash rangli futbolda yozuv alohida rangdagi to'g'ri to'rtburchak yoki futbolka ranglariga proporsional rangda ko'rsatiladi.

16.9. Futboldagi ism–familiya (taxallus) va raqamlar bir xil rangda bo'lishi talab etiladi. Klub libosiga qo'shimcha birlashtiriladigan har qanday elementlarning ehtimoliy ko'rinishi Liga bilan kelishilishi shart.

16.10. Klub Musobaqa davomida foydalanadigan har qanday sport inventari va ekipirovka (to'p va butsa bundan mustasno) Klub tanlab olgan brendga tegishli bo'lishi lozim. Buning iloji bo'lmagan taqdirda, asosiy brend ramzidan boshqa har qanday logotip tartibli holatda berkitilgan bo'lishi shart.

16.11. U19 hamda U21 chempionatida ishtirok etuvchi jamoa libosi asosiy jamoaniki bilan bir xil bo'lishi talab etiladi.

16.12. U19, U21 hamda asosiy tarkib futbolchilarining raqami bir-birini takrorlamasligi talab etiladi.

16.13. Klub ro'yxatdan o'tish oldidan Ligaga yangi mavsum uchun liboslarning 3D formatini taqdim etishi talab etiladi. Musobaqa startiga 20 kun vaqt qolgunicha Klub futbolchilar va darvozabonlar libosining asosiy hamda rezerv ranglari haqida to'liq axborot taqdim etishi shart.

16.14. Klub mezbon maqomida o'tkazadigan har qanday Uchrashuvda faqatgina mavsum uchun tanlangan uy libosida maydonga tushishi talab etiladi. Liga mezbon klubning uy libosi rangidan kelib chiqib, Uchrashuv oldidan mehmon maqomidagi Klub uchun libos rangini belgilashga haqli.

Mezbon jamoaning uy libosiga mehmon jamoaning har ikkala libosi to'g'ri kelmasa, Liga mehmon jamoadan uchinchi libosni talab qilishga haqli.

16.15. Darvozabon libosi ikki jamoa va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

16.16. Futbolchi Uchrashuv qaydnomasiga Liga tomonidan taqdim etilgan litsenziyada ko'rsatilgan raqam bilan kiritilishi va aynan shu raqam aks etgan libosda maydonga tushishi talab etiladi.

17-bob

Klubning OAV bilan ishlashini tartibga solish

17.1. Liga bosh axborot hamkorini belgilash huquqiga ega.

17.2. Klub o'z rasmiy saytiga ega bo'lishi va mazkur sayt doimiy yangilanib borishi tavsiya etiladi.

17.3. Klub matbuot xizmati boshqa Klub, shuningdek, Ligaga aloqador ma'lumotni ruxsatsiz chop etishga haqli emas.

17.4. Klub matbuot xizmati o'z stadionida o'tkazilgan Uchrashuvdan fotosuratlarni Liga talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

17.5. Stadion darvozalari chizig'i ortida Liga akkreditatsiyasidan o'tgan, maxsus nimcha kiygan tele va fotomuxbirlar ishlashi uchun ruxsat beriladi. Ularning Uchrashuvdan oldin, uning davomida va Uchrashuvdan keyin ham belgilangan hududdan tashqarida harakatlanishi mumkin emas.

17.6. Klub bosh murabbiyi Uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanida ishtirok etishi shart. Uchrashuv tugaganidan keyingi 15 daqiqa oralig'ida mag'lub bo'lgan yoki mehmon jamoa birinchi bo'lib matbuot anjumaniga taklif etiladi.

17.7. Futbolchi va murabbiy Uchrashuvdan oldin va keyin bo'ladigan flesh-intervyuda ishtirok etishi, shuningdek, o'yindan keyin har bir futbolchi maxsus mikst-zona orqali stadionni tark etishi shart.

17.8. Klub matbuot xizmati Uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanini o'tkazish uchun mas'ul hisoblanadi.

17.9. Matbuot xizmati vakili klub ishtirokidagi safar Uchrashuviga klub hisobidan borishi va matbuot anjumanida ishtirok etishi shart.

17.10. Klub matbuot xizmati, sayti va unga tegishli ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarda bildirilgan har qanday fikr Klubning rasmiy pozitsiyasi sifatida talqin qilinadi.

18-bob

Klubning Musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar

18.1. Klub Liga Musobaqasida qatnashish uchun belgilangan miqdorda qatnashchilik badal pulini to'lab berishi talab etiladi. Badal miqdori Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi. Bunda, mavsum starti oldidan Liga va Klub o'rtasida barcha to'lovlar va boshqa

majburiyatlar aks etgan shartnoma imzolanadi. Klub shartnoma shartlarini o'z vaqtida bajarish uchun javobgar hisoblanadi. Shuningdek, ushbu shartnomaning imzolanishi Klub tomonidan mazkur Reglament va Liganing boshqa hujjatlarida belgilangan talablarni bajarish majburiyatini olganligi hisoblanadi.

18.2. Musobaqada ishtirok etuvchi Klub Uchrashuvni tashkil etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatni o'z zimmasiga oladi.

18.3. Agar Klub Musobaqa qatnashchilari tarkibidan chiqarilgan bo'lsa, u tomonidan avval amalga oshirilgan badal va boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.

18.4. Qatnashchilar tarkibidan chiqarilgan Klubga badal pulidan qolgan qarzdorlikni to'liq to'lab berish shartida Liga tomonidan tashkil etiladigan boshqa Musobaqada ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

18.5. Liga o'zi tashkil etayotgan Musobaqada faoliyat olib boruvchi Komissar xizmati uchun to'lovlar, uning ikki tomonlama yo'lkirasi hamda yashashi uchun xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

18.6. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar guruhi va Nazoratchi uchun ikki tomonlama yo'lkira, ularning yashash va ovqatlanish, shuningdek, xizmat haqi xarajatlari Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

18.7. Uchrashuv rasmiylarining kutib olinishi, shahar bo'ylab harakatlanishi va kuzatilishi bilan bog'liq masalalar mezbon klub hisobidan amalga oshiriladi.

18.8. Liga Ijroiya qo'mitasi badal to'lovi, jarimalar bo'yicha qarzdorlik, shuningdek, Legioner va Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan to'lovni to'lamagan yoki belgilangan muddatda to'liq to'lamagan Klubni Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirishga, Liga esa bunday Klubga nisbatan transfer oynasi davomida yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishga taqiq qo'yishga haqli.

18.9. Uchrashuvga mezbonlik qilayotgan Klub mehmon klubning rasmiy murojaatiga asosan shu klub muxlislari aniq bir sektordan birgalikda joy olishini ta'minlashi hamda mehmon klub uchun shu sektordan 100 ta bepul chipta ajratishi shart. Buning uchun mehmon klub uchrashuv startigacha 48 soat vaqt qolguniga qadar mezbon klubga rasmiy murojaat bilan chiqishi talab etiladi.

18.10. Klub quyidagi uch yo'nalish bo'yicha kelib tushgan mablag'lari bo'yicha bankning asoslantirilgan hujjatini Ligaga taqdim etish orqali ma'lum imtiyozlarga ega bo'ladi:

- Uchrashuv uchun chiptalar savdosidan hisob raqamiga kelib tushgan mablag'i;
- futbolchini tarbiyalaganlik uchun mashg'ulot kompensatsiyasi yoki birdamlik mexanizmidan hisob raqamiga kelib tushgan mablag'i;
- futbolchini ijaraga berish yoki transfer qilish orqali hisob raqamiga kelib tushgan mablag'i.

Asoslantirilgan ma'lumotlar uchinchi tomonga oshkor qilinmaydi hamda uning asosida Liga klublarning moliyaviy reytingini shakllantirib boradi. Bunda:

- chiptalar savdosi bo'yicha mavsumning eng yaxshi Klubi kelgusi mavsum uchun badal pulidan 50 foiz chegirmaga ega bo'ladi;
- mashg'ulot kompensatsiyasi va birdamlik mexanizmi bo'yicha eng yaxshi Klub kelgusi mavsum uchun Legioner va Xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lanadigan mablag'ning umumiy qismidan 50 foiz chegirmaga ega bo'ladi;
- futbolchini ijaraga berish yoki transfer qilish orqali eng yaxshi natija qayd etgan Klubga mazkur Reglamentning 13.14-bandi bo'yicha cheklov 10 nafargacha etib belgilanadi.

19-bob

Komissarning Musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

19.1. Uchrashuvni tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish uchun Liga tomonidan Komissar tayinlanadi.

19.2. Uchrashuvni boshlash, uni o'tkazmaslik yoki to'xtatish masalasi bevosita Komissar tomonidan hal qilinadi.

19.3. Liga komissarlari ro'yxati maxsus o'quv-seminarida ishtirok etib, uning yakuniga ko'ra tavsiya etilgan mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

19.4. Komissar Uchrashuv startiga 60 daqiqa qolguniga qadar zaxira hakami va Klub rasmiysi bilan birgalikda Uchrashuv qaydnomasini shakllantiradi.

19.5. Komissar Uchrashuvni mazkur Reglamentga muvofiq tashkil etish, uning xavfsiz o'tkazilishini nazorat qilish, huquq-tartibot organlari, Stadion va Klub rasmiylari, futbolchilar, tomoshabinlar harakatlarini baholash uchun mas'ul hisoblanadi.

19.6. Komissar Uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish borasida bahsli masalalar yuzaga kelgan hollarda hal etuvchi ovozga ega.

19.7. Nazoratchi va hakamlar guruhi Komissarga bo'ysunadi.

19.8. Liga Uchrashuvni o'tkazishda Komissarga ko'maklashish uchun Mahalliy koordinator tayinlaydi. Mahalliy koordinator U21 jamoalari uchrashuvida Komissar vazifasini bajaradi.

19.9. Komissar va Mahalliy koordinator bilan bog'liq majburiyatlar va komissarlikka oid vakolatlar Liga tomonidan tartibga solinadi.

20-bob

Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish

20.1. Hakamlik mazkur Reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi.

20.2. Musobaqada Markaz tomonidan tayinlangan hakamlar faoliyat olib boradi.

20.3. Liga shtat xodimi, HA rahbari, shuningdek, Klubda faoliyat olib boruvchi shaxsning hakamlilik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

20.4. Klub Uchrashuvga tayinlangan hakamni almashtirish borasida murojaat qilishga haqli emas.

20.5. Uchrashuvga tayinlangan hakamlar guruhi unga yetib kela olmasa, Markaz Uchrashuvga HA hakamlaridan birini tayinlaydi. Yordamchi hakamlardan biri biror sababga ko'ra maydonga chiqa olmasa, zaxira hakami uning o'rnini egallaydi va bir vaqtning o'zida zaxira hakami vazifasini ham bajaradi.

20.6. Zaxira hakami Komissar bilan birgalikda klub rasmiylari va futbolchilari litsenziyasini tekshiradi. Klub hamda uning rasmiy shaxslari futbolchilarni Uchrashuvda ishtirok etishi qoidalariga rioya qilishi uchun mas'ul.

20.7. Maydonga chiqishdan avval hakamlar guruhi Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan futbolchilar litsenziyasini tekshirishi, shuningdek, futbolchilarning raqamlari Uchrashuv qaydnomasiga mos ekanligini solishtirishi talab etiladi.

20.8. Futbolchini almashtirish oldidan zaxira hakamiga almashtirish varaqasi taqdim etiladi.

20.9. Zaxira hakami maydon perimetri bo'ylab Texnik zonaga oid xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul. U Ballkid va Stadion rasmiylariga tegishli yo'riqnoma beradi.

20.10. Uchrashuv yakunlangandan so'ng, Hakam Komissar bilan birga 30 daqiqa davomida Uchrashuv qaydnomasini to'ldirishi talab etiladi. Agar Uchrashuv davomida ogohlantirishlar, chetlashtirishlar va futbolchilar jarohatlari, shuningdek, stadiona tartibbuzarliklar yuz bergan bo'lsa, Hakam Komissar bilan birgalikda bu haqda batafsil Uchrashuv qaydnomasida bayon etishi shart.

20.11. Uchrashuvdan oldin, Uchrashuv davomida va Uchrashuvdan keyin, shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar guruhining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar va chetlatishlar (ikkinchi ogohlantirish va "yaqqol gol urish uchun imkoniyatidan mahrum qilish" uchun chetlashtirish bundan mustasno) haqida Hakam va uning yordamchilari Komissarni ogohlantirib, Liga nomiga bildirgi xati yuborishi shart.

20.12. Hakam Uchrashuvda yuz bergan ogohlantirish yoki chetlatish, boshqa noxushliklar haqida ma'lumotlarni Uchrashuv qaydnomasiga kiritishni Komissarga bildirmagan bo'lsa, Markaz Liga talabiga ko'ra unga nisbatan tegishli chora ko'rilishi majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

20.13. Markaz va Liga o'zaro kelishgan holda musobaqaga xorijlik hakam yoki hakamlar guruhini jalb qilishga haqli.

20.14. Superliga uchrashuvida VAR texnikasidan foydalaniladi. Texnik sababga ko'ra Uchrashuv davomida VAR bilan bog'liq uzilishlar vujudga kelsa, Hakam har ikki klub bosh

murabbiyiga ma'lumot beradi. VAR bilan bog'liq texnik muammoni bartaraf etishning imkoni bo'lmasa, o'yin davom ettiriladi.

20.15. Hakamlar guruhi Komissarga bo'ysunadi.

21-bob

Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish

21.1. Musobaqada Markaz tomonidan tayinlangan Nazoratchi faoliyat olib boradi.

21.2. Klub Uchrashuvga tayinlangan Nazoratchini almashtirish borasida murojaat bilan chiqishga haqli emas.

21.3. Nazoratchi mazkur Reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar, shuningdek, o'zi amal qilishi shart bo'lgan boshqa har qanday talablarga qat'iy rioya etishi shart.

21.4. Komissar ishtirok etmayotgan Uchrashuvda Mahalliy koordinator yoki Nazoratchi Uchrashuv davomida Komissar vazifasini bajarishi talab etiladi.

21.5. Nazoratchi Komissarga bo'ysunadi.

22-bob

Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi

22.1. Hakam qarorlari bo'yicha shikoyat yoki e'tiroz mazkur Reglamentga muvofiq beriladi va ko'rib chiqiladi.

22.2. Hakamlik sifatiga nisbatan klubda e'tirozlar mavjud bo'lsa, bosh murabbiy yoki sport direktori Uchrashuv yakuniga yetganidan keyingi 30 daqiqa ichida bu haqda Komissarga ma'lum qilishga hamda o'z e'tirozini Uchrashuv qaydnomasida imzolashni talab qilishga haqli.

22.3. Hakamlik sifatiga nisbatan rasmiy e'tiroz yozgan Klub 24 soat ichida mazkur Uchrashuv videoyozuvini hamda Hakamning aniq daqiqadagi harakat yoki harakatsizligiga nisbatan e'tirozini Liga rasman taqdim qilishi lozim.

22.4. Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- Uchrashuv qaydnomasida qayd etilmagan shikoyat yoki e'tiroz;
- 48 soat davomida Klub shikoyat yoki e'tiroz uchun pullik to'lovni amalga oshirmagan shikoyat yoki e'tiroz.

22.5. Musobaqa o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz Komissarga Uchrashuv boshlanishidan kamida 60 daqiqa oldin yozma ravishda taqdim etiladi. Komissar mazkur e'tiroznomani komissarlik bildirgisiga ilova qiladi.

22.6. Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz pullik to'lov Liga hisob-raqamiga amalga oshirilganidan so'ng ko'rib chiqish uchun tegishli qo'mitaga kiritiladi. Shikoyat yoki

e'tiroz mazkur shikoyat uchun to'lov amalga oshganidan keyingi 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun to'lov:


- Superliga uchun — 10 000 000 so'm (o'n million);
- U19 va U21 chempionati uchun — 5 000 000 so'm (besh million).

22.7. Shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun amalga oshirilgan pullik to'lovning qaytarilishiga shikoyat yoki e'tirozning qanoatlantirilishi, shikoyat yoki e'tirozda keltirilgan tafsilotlarning asoslanganligi va mazkur Reglamentga zid ekanligining tan olinishi asos bo'ladi.

22.8. Klub o'z shikoyat yoki e'tirozi ko'rib chiqilishi uchun to'lovni uchrashuvdan keyingi ikki bank ish kuni ichida amalga oshirmasa va bu vaqtda shikoyat yoki e'tiroz qaytarib ham olinmagan bo'lsa, mazkur Klub shu bobning 6-bandida ko'rsatilgan to'lov miqdorining teng yarmini jarima sifatida to'lab berishi talab etiladi.

22.9. Klub kiritgan e'tiroz yoki shikoyatini 48 soat ichida qaytarib olsa, unga nisbatan intizomiy chora qo'llanilmaydi.

22.10. Klub bosh murabbiyi Uchrashuv uchun hakamlik yuzasidan e'tiroz bildirsa va ayni vaqtda Klub shu bob bo'yicha belgilangan tartibda rasmiy shikoyat kiritmasa, bosh murabbiy tegishli qo'mita qarori bilan jazolanadi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

2026